

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI***

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

REFERATI

**Mavzu: Tohir Malik qissalarida davr
illatlarining fosh qilinishi**

O'qituvchi Qurbonova F

Qo'qon - 2011 yil

Mavzu: Tohir Malik qissalarida davr illatlarining fosh qilinishi

I bob. Tohir Malik – zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakili.

1.1. YOzuvchining hayoti va ijodiy faoliyati.....

1.2. Tohir Malik - mohir qissanavis.....

II bob. Tohir Malik qissalarida davr illatlarining fosh qilinishi.

2.1. Tohir Malikning «SHaytanat» qissasida davr va shaxs muammosining badiiy falsafiy talqini.....

2.2. Tohir Malikning «Alvido, bolalik!» qissasida ma'naviy xastalikka qarshi isyon masalasi.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

I bob. Tohir Malik – zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakili

1.1. YOzuvchining hayoti va ijodiy faoliyati

XX va XXI asrda fantastik va sarguzashtga boy detektiv asarlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasiga katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri, iste'dodli nosir, mohir tarjimon va taniqli jamoat arbobi Tohir Malik 1946 yil 27 dekabrda Toshkentda ziyoli oilada tug'ilgan. Taniqli o'zbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoilov T. Malikning tog'asi edi. YOzuvchining ijod olamiga kirib kelishiga tog'asining ta'siri katta bo'lgan.

6 yoshidan boshlab 132-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim oladi. O'quvchilik davrida Quddus Muhammadiy boshqargan adabiyot to'garagiga qatnashadi. To'garakda shoir Quddus Muhammadiy va bolalar shoiri Quddus Hikmatdan ilk ijod sabog'larini oladi. 1963 yilda o'rta maktabni tamomlab, ToshDU ning jurnalistika fakul'tetiga o'qishga kiradi. 1968 yilda o'qishni tugatib, o'zi o'qigan maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi.

1966-1971-yillarda O'z teleradioda ishlaydi. Keyingi ish faoliyatini «Guliston» jurnalida, «G'afur G'ulom» va «CHO'lpon» nashriyotlarida, «YOshlik», «SHarq yulduzi» jurnallarida davom ettiradi. Bugungi kunda

«Bekajon» gazetasida tahrir a'zosi. YOzuvchi qaerda ishlasin hayotni, insonlarni, ularning tabiatlarini yaqindan o'rganishga harakat qiladi.

Tohir Malik 70-yillarning boshlarida o'zbek adabiyoti maydoniga kirib keldi va o'z ijodini bolalar uchun hikoya yozishdan boshladi. Keyingi yozgan asarlarida esa fantastika katta o'rinni egallaydi. Jahon fantastik yozuvchilari asarlarini qunt bilan o'qib o'rganadi. O'zbek adabiyotida bu janrda ijod qilgan Hojiakbar SHayxov, Qudrat Do'stmuhammedov, Rustam Obidov kabi fantastik yozuvchilar asarlari bilan qiziqib tanishib chiqadi. Tohir Malikning «CHorrahada qolgan odamlar» asari talabalik yillarida yozildi. U vaqtda fantiastik asarlar deyarli yo'q edi. Faqat Hojiakbar SHayxovning bolalar uchun yozgan asarlarida fantastika elementlari uchrab turardi.

Tohir Malik fantastikaga milliylikni olib kirdi. U ijodga doir mashqlarini davom ettirar ekan, tog'asi Mirzakalon Ismoilyliyning «O'zing bilmagan narsani yozma», «Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top» degan o'gitlariga doimo amal qilib keldi. SHu tufayli yozuvchi o'zbek adabiyotida kam e'tibor berilgan fantastika janriga qo'l urdi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozondi.

Tohir Malik – serqirra ijodkor.

YOzuvchining «Hikmat afandining o'limi» nomli birinchi fantastik qissasi 1971 yilda chop qilinadi. So'ngra «Zarli g'ubor» (1978), «Somon yo'li elchilari» (1979), «CHorrahada qolgan odamlar» (1985), «Qaldirg'och» (1987), «Bir ko'cha, bir kecha» (1988), «Alvido, bolalik!» (1989), «So'nggi o'q» (1990), 4 kitobdan iborat «SHaytanat» qissasi (1944-2000) «Mehmon tuyg'ular» (2004), «Jinoyatning uzun yo'li» (2005), «Tilla kalamush» hajviy qissa va hikoyalar (2007), «Ayovsiz ilon» ma'rifiy suhbatlar (2009) kabi asarlari keng kitobxonlar ommasi tomonidan iliq kutub olingan. Tohir Malik badiiy imkoniyati keng ijodkor. U faqat etuk nosirgina emas, dolzarb mavzulardagi badiiy maqolalar muallifi, mohir tarjimon sifatida ham tanilgan. Tohir Malikning bolgar va rus adabiyotida qilgan tarjimalari o'zbek kitobxonlarining sevimli asariga aylanib qolgan. SHu o'rinda adibning tarjimachilik faoliyatida erkin tarjimaga ko'p e'tibor

qaratilishini aytib o'tish joiz. Tohir Malik tarjimasida Vladimir Ikskul (1860 yilda tug'ilgan)ning «Nomus va ajal» qissasini 2007-yilda nashr ettirdi. Muhabbat – go'zal va nozik tuyg'u. U qalblarga nur, surur beradi. Muhabbat nomus, hayo kabi fazilatlarni o'ziga jo qilsagina sevishtanlarga chinakam baxt bera oladi. Nomussiz muhabbat esa ishq ahlini ajalga giriftor etadi. Kavkazliklar hayotidan hikoya qiluvchi bu muhabbat fojiasi o'zbek kitobxonlarini befarq qoldirmaydi.

1.2. Tohir Malik – qissanavis

Yaratgan tomonidan ado etilgan iste'dod haddan tashqari kuzatuvchanlik, jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan yaxshi tanishlik, jonli hayotga yaqinlik uni badiiy ijod maydoniga etaklab keldi. T. Malik ilk qadamlaridanoq adabiyotga o'ziga xos ovoz, o'zgacha tasvir usuli va alohida badiiy idrokka ega yozuvchi sifatida kirib keldi. Vaqt o'tgani sayin adib ijodining ana shu jihatlari teranlik va tiniqlik kasb etib bordi.

Tohir Malik, birinchi navbatda, qissanavis sifatida tan olingan yozuvchidir. Adibning qissalari o'zbek qissachiligi taraqqiyotining o'ziga xos davrini tashkil etadi deyish mumkin. YOzuvchi nasrning bu janrida inson tabiatiga xos turfa jihatlarni, ruhiy iztiroblaru tuyg'ular tovlanishini butun murakkabligi bilan ko'rsata oladi. Uning «Murdalar gapirmaydilar», «CHarxpalak», «So'nggi o'q», «Vasvasa», «Alvido, bolalik!», «SHaytanat» singari o'nlab badiiy barkamol asarlari qissa janri imkoniyatlari nechog'lik katta ekanligi amalda ko'rsatdi. Mazkur qissalar adibning shaxs va uning tuyg'ulari, taqdiri, qismati haqidagi o'ylar, iztiroblari hamda mulohazalarining ko'rinishidir. Bir qarashda, T. Malik qissalari soddagina: pardozlar, jimjimador badiiy bezaklardan xoli ko'rinadi:

Adibning «Savohil» va «So'nggi o'q» asarlari ma'lum ma'noda bir-birini to'ldiradi. Ularda oktyabr to'ntarishidan keyin xalqimiz boshiga tushgan fojiali qalamga olingan.

«... Turkiston Markaziy ijroqo'midagi majlislar Asadullani tabora qiynab borardi, uni go'yo boshi berk ko'chaga haydayotgandek edi. Milliy uyg'onish, yurt istiqloli orzusi mavhumlik pardasiga chulg'anardi. U jannat bog'larini chorasiz kishi holida o'zini ko'rib, ruhi faryod cheka boshladi. «Qaysi nuqtada xatoga yo'l qo'ydik? Nahot bo'layotgan gaplarning barchasi yolg'on, nahot biz aldovga uchgan nodonlarmiz?» - Asadulla shu savollarga javob izlardi. Ichki bir hayqiriq «Senlar aldandilarina, senlar tufayli xalq ham aldandi deb tursa, so'nib ulgurmagan umid cho'g'i» «YAna ozgina kutaylikchi» deb sabrga undardi...¹ «Savohil» 1985 yilda yozilgan qissa bo'lib, lekin uning yozilishi ancha oldin boshlangan. Aslida Tohir Malik 1978 yilda atoqli siyosiy arbob, ma'rifatparvar, o'zbek teatrining asoschilaridan biri A. Avloniy tavalludining 100 yilligi arafasida «Guliston» jurnalida ishlardi. O'sha vaqtdagi jurnalning bosh muharriri o'rin bosari Vahob Ro'zimatov unga bir surat ko'rsatib: «Afg'onistonga borgan birinchi elchilar delegatsiyasi. Bu odam Abdulla Avloniy degan taxmin bor. SHuni aniqlash kerak deydi. T. Malik Abdulla Avloniyning uylariga borib, Avloniyning qizi, o'g'li, shogirdi bilan uchrashadi. SHu masalaga oydinlik kiritish maqsadida Moskvaga ketishidan oldin tog'asi M. Ismoiliy bilan suhbatlashadi. O'sha suhbatda tog'asi o'zbek ziyolilarining taqdirini yozish kerak degan fikr berib, yozuvchining yuragiga cho'g' soladi. Kutubxonalaridagi, arxivdagi noyob hujjatlarni o'rganib chiqib bu qissani yozadi. Asar garchi Abdulla Avloniyga bag'ishlangan, unga shoirning hayotidagi ko'p voqealar kirgan bo'lsada, U Avloniy tarjimai holi sifatida berilmaydi. YOzuvchi Asadulla Mir'alam siymosida o'zbek ziyolilarining eng yaxshi fazilatlarini jamlashga, shuningdek oktyabr to'ntarishidan keyingi adashishlarni bayon etishga harakat qiladi. Bolsheviklar o'zbek ziyolilari va shariat peshvolari orasidagi ixtiloflardan ustalik bilan foydalanadilar. Ularni ayri-ayri sohillarga tashlab, so'ng birma-bir qirib

¹ Т. Малик. Танланган асарлар. 3-жилд. Савоҳил. Қисса 8-том. «Шарқ» 2005 й. 10-б.

yuborganlar. Tarixning bu mash'um sahifalari bugungi avlod uchun ibrat bo'lishi lozim.

Qissada XX asr boshidagi tuzum illatlari, o'zbek ziyolilarining murakkab va fojiali taqdirleri haqqoniy tasvirlangan. Bol'sheviklarning vahshiyona xatti harakatlari butun bir qishloq ahlini yosh, qarini, bola, aylni adirga haydab chiqib, «bosmachilarga qarshi handaq qaziysizlar»doya o'ldirib, o'zlari qazigan handaqlarga ko'mib ketishlari, o'z uylarini himoya etuvchilarni «bosmachi» deya ariqlarda suv o'rniga ularni qonini oqizganlar banyo etishga so'z ojiz... YOzuvchi odamlarning sho'rolarga qarshi qo'lga qurol olishlariga aynan shunday vahshiyliklar sabab bo'lgan deya xulosa beradi.

Sovetlar tuzumi davridagi qamoq hayoti, jinoyatchilarning ruhiy olami bunyo etilgan «Murdalar gapirmaydilar» va «Ov» qissalarida nafsning kelajagi – zulm, zulmning kelajagi esa xorlik ekani haqida fikr yuritiladi. Bu oddiy hayot haqiqati orqali badan pokligi badangan, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Qissaning «YAshash huquqi» deb nomlanuvchi birinchi bayoni «Aralangan daraxt» degan bir rivoyat bilan boshlanadi.

«Emishki, bir o'rmonda bolta paydo bo'lib, daraxtlarga qirg'in keltiribdi. YOg'ochlar unga qarshi chora topolmay, keksa donishmand emandan maslahat so'rashibdi. «Bolta deganlaring nima o'zi? U nimadan ishlangan? Deb so'rabdi eman. «Bolta- temirdan yasalgan bir matohdir» deb javob beribdilar. «O'zi-ku, temir ekan, dastasichi? Dastasi ham temirdanmi?» deb so'rabdi eman. «YO'q, - debdilar,-dastasi-yog'ochdan bo'lsa, unga chora yo'q», degan ekan eman.² Xuddi mana shu eski rivoyatda aytib o'tilgan fikrlar asarning o'q tomiriga singdirilgan. CHunki hayotda ham «daraxtzorda» «bolta» paydo bo'lishi bilan unga dasta bo'lishga oshiquvchilar ko'payishi sir emas. Qissa qahramoni Tursunali ham xuddi mana shu «o'zidan chiqqan «dastalar» sabab ildizi chopilib, uzoq sovuq o'lkalarda darsxt kesuvchilar safiga tushib qoladi. Uyqusiz sabablarini bu balolarga muhtalo bo'lish sabalarini ko'p o'ylaydi. Do'st libosidagi ilonlar boshini yanchishni diliga tugadi.

² T. Malik . Tanlangan asarlar. .2-jild.. Murdalar gapirmaydilar. Qissa. T. 2004 y. 7-bet.

Dunyo bamisoli birdaniga ko'karib tezda qurigan dalaga o'xshashini, ehtiyotsizlik qilinsa bu manzara kishini aldab qo'yajagini, aldangan esa, bir kuni hayoti sarg'ayib so'la boshlagach, ma'yus va g'amgin bo'lajagini anglamaydi. Dunyoning o'xshashini, o'ylamay tashlangan har bir qadam botqoqqa – botirish mumkinligini fahm etmaydi. Tursunali shunday bandalardan biri. U marhamat so'rab Xudoga ko'p yolboradi. Ammo iymon kalimasi bilan yumshamagan dildan o'chgan bu yolborishlar qabul bo'larmikan? Insonlarni salomatga, saodatga erishtiruvchi yagona narsa iymondir. Odamzod har qanday yomonlikni faqat iymon bilan engishi mumkinligini anglab etmog'i mumkinmi? Dunyo to'plashga etgan aql bu haqiqatni tushunishga kelganda kamlik qiladi. Tursunali avvallari xudoni eslamas edi. Qo'lariga kishan tushishi bilan yodga oldi. Dam tavba, dam munojot qiladi. «Gunohim bo'lsa kechir» deydi. «YO yaratgan egam, men gunohkor bandangman, bilib-bilmay qilgan gunohlarimni kechir» demaydi. Birovlarning haqqini eganida bu dunyoning hisob-kitobli ekanini unutgan edi. «Nafs balolaridan qutqar» deb so'ramagan edi, «zindon azoblaridan qutqar» deb faryodlar qildi. Bandaning holi shu: go'yo u yoki bu ishning gunoh ekanini bilmagandak yuraveradi. Boshi devorga urilib, zarba tufayli ko'zlaridan uchqunlar sachragandagina Tangrini eslaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, asarda ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan pokiza hayot kechirish g'oyasi ilgari surilgan.

SHaxs ruhiyatni tasvirlash Tohir Malik ijodiga xos muhim belgi deyish mumkin. SHo'rolar davrida eng yaxshi adabiyot - muammolar adabiyoti edi: o'sha sharoitda biror dolzarb hayotiy masalani ko'tarib chiqish, badiiy tadqiq qilishga urinishning o'zi jasorat hisoblanar va adabiyot uchun ham ma'lum ahamiyatga ega edi. Mafkura iskanjasiga kommunistik estetika badiiy adabiyotdan odamga uning oddiy «vint-murvat» ekanligini eslatib turishni kishi bilmas tarzda talab qilardi. Garchi, o'sha paytda ham og'izda insonni tasvirlash asosiy maqsad deyilsada, amalda odamga emas, uning mehnatiga e'tibor qaratilardi. Insonga asosan ishchi kuchi deb qaralar va u shu nuqtadan turib tasvir etilar edi. Inson tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlarga madhiyalar aytilsada, uning

shaxsiga, ko'ngliga e'tibor qilinmas edi. Har bir odamning olam ichra olam ekanini hisobga olish, uning ruhiyati va kechinmalarini tadqiq etish badiiy ijod uchun muhim sanalmas. T. Malik sermahsul ijodi bilan adabiyotshunoslikdagi bu kabi talablarni inkor etdi va istiqlol g'oyalarini millatdoshlar tafakkuri hamda ruhiyatiga singdira oldi.

Tohir Malik zamonasozlik bilan qalam surmaydigan adib. U kitobxonlar saviyasiga moslashishga emas, balki ularning didini ko'tarishga, o'quvchini davr nafasini ilg'aydigan darajaga etkazishga urinadi. SHu bois o'quvchisidan oldinroq yurishga harakat qiladi. Tohir Malik hayotni insoniy tuyg'ular tasviri orqali ifoda etadi. U odam ruhiyati tovlanishlarini chuqur va tiniq tasvirlashga ishqiboz. YOzuvchining qissalarida hamisha shaxs tasviri, uning katta-kichik dardlari, iztiroblari, intilishlari, o'y-xayollari mavjud. Uning qahramonlari shu jamiyat, shu hududda nafas olib, sizni bizning oramizda yashab kelayotgan, ezgu va buning aksi bo'lgan ishlardagi shaxs va kimsalardir. Ularning hatti-harakati, fikr va dunyo qarashi, atrofidagi kishilar bilan munosabatlari, ma'lum bir voqelikka aloqasi qahramonning qanday ko'rinish (ijobiy yoki salbiy) zohir qilishni belgilab beradi. «SHaytanat» dagi Asadbek, CHuvrindi, Kesakpolvon singari botil olamning vakillari, «CHarxpalak»dagi ruhoniylar olam kishilari, «So'nggi o'q» dagi qasoskorlikni o'ziga kasb qilgan kimsalarning tanazzuli va boshqalar ana shu xulosaga olib keladi.

Adib qahramonlar ruhiyatini har tomondlama chuqur ochib berishga harakat qiladi. Buni biz adibning «Alvido, bolalik!» qissasi misolida ham ko'rinishimiz mumkin.

O'zbek detektivining qiziqarli namunasi bo'lgan bu qissa har qanday yosh va kasbdagi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Adibning «Jinoyatning uzun yo'li» turkum asarlarining birinchi kitobi bo'lishi mazkur qissa yomonlarning aybi bilan jinoyat ko'chasiga kirib qolgan iste'dodli o'zbek bolasi, yaxshi oilaning qobil farzandi boshidan kechirgan mushkul sarguzashtlari, fojiali taqdiri haqida hikoya qiladi. Asar markazida hayotning chag'ir tikanakli yollarida o'zlarini yo'qotib, adashib – tentirab yurgan bolalarning ruhiyati, ularning ichki tuyg'ulari,

adashganligini tan olmay, o'z fojiasida boshqalarni aybdor sanash kabi fikrlar to'liqlar goh ko'tarilib, goh tushib turadiki, kitobxon ushbu holatlarda aybdor kim, sababchi kim, gunoh nima, savob nima, degan oddiy savollarga juda murakkablik bilan javob topib boradi.

Biz bu o'rinda qissa markazida turgan Qamariddin fojiasining ildizlariga nazar tashlashni istadik. Negaki, asarlardagi jamiki syujet chiziqlari aynan mana shu qahramon atrofida aylanadi.

Qissadagi Asrorning ruhiy kechinmalari, ikkilanish –u istar istamas aytgan yolg'onlari, ko'p bolali nochor oilaning otasiz etim farzandi Salimning jismoniy qiynalishlari va hokozo voqealar ayni shu Qamariddinga kelib taqaladi. YOzuvchi barcha voqealarning boshlanish nuqtasi shu obraz bo'lgani uchun Qamariddining ichki va tashqi olamiga alohida e'tibor qaratgan. Qamariddin nima sabablarga ko'ra jinoyat olamiga kirib qolgani, o'zi tengi bolalarni bu manfur olamga tortish, o'smir yoshida jinoyat olamining tajribali shaxsiga aylanganini ishonarli misollar yordamida ko'rsatib bergan.

T. Malik inson shaxsi, uning xarakter rivojiga islomiy nuqtai nazardan yondashuvchi adib ekanligini isbotlagan. Qamariddin obrazini yaratishda ham xuddi shu yo'ldan boradi. Uning fojeasiga faxsh, zino, oilaviy tanazzul tarbiya sabab bo'lganligini ko'rsatishga intiladi va bunga to'la erisha oladi. (Bu haqida 2 bobda batafsil to'xtalamiz)

YUqorida tilga olingan asarlarning muvaffaqiyatini ta'minlagan xislat muallifning dardmandligi, tasvirga olingan kishilar qismatiga sherikligidir. Adib obrazlar xatti-harakatlarining tub sabablarini tadqiq qilishdan erinmaydi. U oqibatni, ya'ni voqelikning tashqi tomonini ko'rsatib qo'ya qolishga shoshilmaydi. Har oqibat muayyan bir sababning mahsuli ekanligini insoniy taqdirilar orqali ko'rsatadi.

II bob. Tohir Malik qissalarida davr illatlarining fosh etilishi.

2.1. Tohir Malikning “SHaytanat” qissasida davr va shaxs muammosining badiiy falsafiy talqini.

Mustaqillik yillarida yozilgan «SHaytanat» asari yozuvchiga chinakam shuhrat keltirdi. Adib ijodining nechogʻli baquvvat va koʻlamli, jozibador ekanidan dalolat beruvchi bu asarni keng kitobxonlar iliq kutib oldi. Sababi asarda koʻtarilgan mummolar oʻta dolzarb va muhim edi. YOzuvchi «SHaytanat» asarida «inson dunyodan lazzatlanish, bu dunyo sinovlaridan oʻtish uchun keladi. Imoni butun odamlargina bu sinovlarga dosh bera oladi» degan gʻoyani ifodalashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.

Odam erda yuradi. SHoir Asqar Qosim aytmoqchi:

Samodagi tuzoq nima bilmagay,

U hech kimga itoat ham qilmagay.

Afsuski, shoir taʼriflagandek, oyoqlar ostida tuzoqlar ham koʻp. Bu tuzoq odam bolasining yonlida hal qiluvchi vosita ham boʻlishi mumkin. SHuning uchun

har bir inson o'zining hayot yo'lidagi tuzoqqa qarshi kurasha olish quvvatiga ega bo'lishi kerak.

«SHaytanat»da shayton haqida ko'p fikr yuritiladi. YOzuvchi o'zining shayton haqidagi har bir fikrini «Qur'on» suralari va Hadislaridan misollar keltirish bilan isbotlashga harakat qiladi.

SHayton ham kishi bilmas ulug' qudrat egasi. U –hasad, riyo, jaholat, razolat, g'azab, shahvat, zulm saltanatlarining sultoni. Uning saltanati qurg'oqchilikni bilmaydi. U ekan urug'larga siz va biz suv berib, o'zimiz anglamagan holda xolis xizmat qilamiz. SHuning uchun saltanatida qadalgan har bir urug' nish berib, unib chiqaveradi, meva tugadi.

Tohir Malik yomonlik daraxtining ildizini izlab topishga harakat qildi. Biroq uni topmoqqa bir odamning imkoniyati etmaydi. SHu tufayli yozuvchi to'g'ri xulosa chiqarish uchun ko'pchilikka, ommaga murojaat qildi.

«SHaytanat»ni o'qib shu o'ylarga bordim: «Qani edi, hammamizning YUsufbek hojidek otamizu O'zbek oyimdek onalarimiz bo'lsa, o'shalarning qanotida etishsak! Asadbeklar shu kuylarga tushmas edi?!» Va shunda butun fojia tag zamiri ila qurib ketgandek bo'lardi! Bekorga otalarimizdan ayirmagan ekanlar bizni!...

Buvalari, omon qolgan bolakaylar baxtli ekanlar! Issiq bag'rilaridan chiqarmadilar. Nima yaxshi, nima yomon, nima harom, nima halol, harqalay ajratadigan qildilar.

Ammo mulla buvalari, opoqdodalari sovuq o'lkalarga surgun etilib, otalari urushda, qamoqlarda qolib ketganlar-chi? Ularning yozug'i ne edi? Murg'ak yuragiga yovuzlik tuxum qo'yib ulgurgan bolakaylar, etimxonalarni to'ldirgan «zumrasha»larning gunohini kim elkasiga olgay? Qaysi jamiyatning sud kitobiga yozgaymiz? Asadbeklar shu imonsiz jamiyatning mevalari, uning qasos o'ti ko'zini ko'r qilgan «o'g'lon»lari emasmi?

«SHaytanat» muallifining eng birinchi yutug'i shundaki, u zulmning o'q ildizini topib, asarga qo'l uribdi. Tohir Malik ba'zilar o'ylagandek oldi-qochdi, shunchaki sarguzasht asar yozish uchun qo'liga alam olmagan. U ko'p yillar

yashab qoladigan va qancha kishilarni sergak tortirib, shaytanat olamiga kirib qolishdan qaytaradigan chinakam badiiy asar yaratdi.

«SHaytanat» Tohir Malikning baland asari. Qoladigan asari. Har satri, sahifasidan iste'dod nafasi (chuqur badiiy tadqiq ruhi) ufurib turibdi. Kimdir ilgarigi asarlariga o'xshata olmayotgan bo'lsa, uni oxiriga qadar o'qishga sabri etmabdi. Yo'nalishini anglamabdi., mag'zini chaqolmabdi.

Holisanilloh ayting: «CHuvrindining taqdiri, boshiga tushgan achchiq qismati Asadbeknikidan kammi?! YOKi bo'lmasa, Anvarning fojiasi-chi, boshiga tushgan ko'rgiliklar-chi? Kimni, qaysi yurakni titratmaydi? Qolaversa, Asadbekning qizi Zaynabning boshiga tushgan jaf o'shi, balolar-chi? U ko'rgan zulm, yovuzliklar qiz bolani muhabbat ko'chasidan chiqarib, qasos ko'chasiga boshlasa, qaysi jamiyat, tuzumni ayblash kerak? SHariat mann etib qo'ygan hadlarni lang «ochib qo'ygan» tuzumnimi va yo uni qaytaraolmagan, o'zi qaysi boshi berk ko'chalarda shayton etovida ketayotgan Asadbekdek otalarnimi, qasos o'tida yonib, yo'lini yo'qotgan va ustma-ust gunohga botayotgan eri elchinnimi? YOl'g'iz onaizor Manzura boshini qaysi toshlarga ursin?!»³

Qirq to'qqizinchi yilning so'nggi kuni, Sovuq uy, sovuq tancha. Otasi chana, ayajonisi ukacha olib keladigan bir kunda bu uyga kulfat bulutlari bostirib kirdi. Va bu abri balo bu xonadonni bir umrga ota mehridan judo qilib ketdi. Bola «Dadamga tegmang?! Tegmang dadamga!» deb hayqiradi-yu... Ota bag'riga olib, yuzini yuziga bosganda tekkan ko'z yoshgina qoldi. SHu kecha murg'ak qalbga o'rmalab kirgan shayton uning o'ksik, alamzada qalbiga o'zining yovuzlik tuxumini qo'yib ulgurdi va u qasos istab, o'ch hukmini o'qidi:

- Ularni o'ldiraman!

Va bolagina bilmasdiki, bizning dinda o'ch olmoq harom qilingan edi; qasos yolg'iz Ollohga tegishli edi.

SHaytonsaroyga birinchi g'isht o'sha kuni qo'yildi! Keyin shayton lain bu saroyga boshqa alamzada va validi zinolarni etaklab kelib, Asadbek xizmatiga topshirdi. SHu tariqa saltanat ichida norasmiy saltanat tup qo'yib palak yoydi. Va

³ Т. Малик «Шайтанат» «Шарк» Т. 1997 й. 369-б.

bu saltanat «gullab», og'izga tushgan kezda uning odamlaridan biri qimorda xonumonini yutqizib qo'ygan hofizning uyiga bostirib kirib, (kirganda ham nomahram oyoq bosishi mann etilgan joyga qadar kirib borib) ayolinining nomusini toptagan, ko'ksiga pichoq urib ketgan.

Asar har qanday er kishining g'ururini bukib-da tashlaydigan ana shunday voqeadan, u alamlarini ichiga yutib, sudda gunohni bo'yniga olib qamalib ketishidan va o'n yil qasos kunini kutishidan... boshlanadi.

Asar ilk satrlari, sahifalaridanoq u «oldi-qochdi», «quvdi-yitdi», «otdi-ketdi»lar asosiga emas, chinakam ma'naviyatga dahldor masalalar, hayot-mamot masalalari, azaliy or-nomus, adolat, ezgulik va yovuzlik kurashlariga qurilgani ko'rinib-anglanib turibdi. Barcha kurashlarning markazida o'ziga xos shaxslar, betakror xarakterlar turibdi. Va qadam-baqadam, sahifama-sahifa o'zligini namoyon etib bormoqda.

Asadbekning o'zi betakror xakteri, hislat va fazilatlari bilan, chigal taqdiri va bukilmas irodasi bilan alohida olam bo'lsa, CHuvrindi eng qiyin – ekstremal sharoitlarda ham topqirligi, uzoqni ko'ra olishi bilan, tegirmonga tushsa butun chiqa olishi bilan bizni hayratga soladi. Taqdiri-chi? Uning boshiga tushgan ko'rgiliklar-chi? Tag'inam u metin ekan, uning o'rnida boshqa har qanday inson yovuzga aylanib ketar edi! Lekin CHuvrindi adolat hissini, do'stga sadoqat hissini yo'qotmaydi. SHu jihatlari bilan Kesakpovondan o'n kara baland turadi. Va shu baland turgani uchun ham raqibi tomonidan yo'q qilinadi.

Asardagi elchin, Zaynab obrazlari-ichki olami eng yorqin va ishonarli, butun ziddiyatlari ila chizib berilgan pokiza bir muhabbatni ilhaklik ila, beg'uborlik ila kutgan bir qalb qasos qurboniga aylansa va sharmandalik chodiridan qutilishi uchun o'sha ishni qilgan odamga uzatilsa, u qaysi dil, qanday yurak bilan yashab o'tadi bu dunyodan?! Zaynab fojiasiga bag'ishlangan bob va sahifalar asarni chindan baland mavqega ko'tarib, badiiyatga daxldor etib turibdi. U chinakam iste'dod mevasi ekanidan hech-hech tonib bo'lmaydi. SHu qizining fojiasi tufayli Asadbek ne kuylarga tushib, ne o'tlarga qovrilmayapti! SHu bahonada yozuvchi SHayton saltanatining eng chirkin go'shalarigacha kirib borib

tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Bu saltanatda bir to'da boshqa to'dani yiqish, sindirish uchun har qanday qabihliklardan qaytmasligini ko'ramiz. Elchin Asadbekdan o'ch olish uchun uning qizini o'g'irlab, nomusini bukmoqni va bir umr ezilib o'tishini istaydi. Zaynab shu maqsadda o'g'irlanadi. Boshqa bir raqib – Hoslboyvachcha esa, Mardonani ishga solib, Zaynabni ne ko'chalarga etaklatadi. Igna ila sarxush ettirib, giyohvandlar qavmiga qo'shadi va sarxushlik holatida suratga olingan kassetani otasiga «taqdim» etadi. O'zbek qizlarining bu ko'chaga kirib kelishi avvalo dahshat! Hech bir ota bu isnod oldida chidab turolmas! Ayniqsa, Asadbek qudratli odam! Nima bu? Qaytar dunyomi? Asadbek o'z qilmishlarining jazosi, qaytimini shu dunyodayoq, tirikligidayoq topayaptimi?

Adib qahramonlarini shunday chigal va eksremal holatlarga, ko'rigiliklarga solib sinaydi, qovuradiki, har biri nimalaga qodirligini tabiiy ravishda, o'z-o'zidan namoyon etib boraveradi. Tan olish kerak, Tohir Malik o'zbek adabiyotida sarguzasht unsurlari amalda isbot etgan yozuvchidir. Biz shu vaqtga qadar bu unsurlarni mensimay, unga past nazar bilan qarab keldik va adashganimizni endi ko'rib turibmiz. U chuqur badiiy mushohadaga xizmat etishini endi inkor qilib bo'lmaydi. «SHaytanat» bunga yorqin dalil.

Tohir Malik asarga bo'y roslab borayotibdi. Ayniqsa, shu «SHaytanat»ida chevarligini namoyon etibdi. CHokini chokiga keltirib, voqealarni ulash, taqdirlarni chog'ishtirib bori but kitobdan iborat yaxlit asar yaratish har qanday adibning qo'lidan kelavermaydi. Buni chinakam iste'dod egasi, Xudo yuqtirgan talantgina uddalashi mumkin. Asadbekdek murakkab qahramonning shusiz ham chigal hayoti, havas qilmagulik taqdiri atrofida undan kam ko'rgiliklar ko'chasidan o'tmagan, o'sha beshafqat hayotda shafqatsizlarcha yashashdan bo'lak yo'l topmagan CHuvrindidek, Kesakpovondek bir guruh boshqa olam farzandlarining qismatlarini shunday ishonarli chizadiki, hayratga tushmay ilojingiz yo'q. Birgina Zelixon taqdiri, Xongirey qismati, ular bosib o'tgan yo'l va etishgan cho'qqi, nihoyat biridan ikkinchisiga meros qolayotgan bu hufiya saltanat bilan bog'liq voqealar nimaga teng?! Ular chinakam topildi: SHaytanat saltanatining hududlaridan, qudratidan dalolat berguvchi! Ildizlari qaerga borib tutashuvidan,

yovuzlikning urug'i qaerlargacha sochilib, qanday zaharolud mevalar berayotganidan hikoya etguvchi! Va bular barchasi qo'shilib, SHaytanat olami haqida shunday yaxlit bir tasavvur uyg'otadiki, bu olam kishisi bo'lib qolishdan Oллоhning o'zi asrasin! Asrasin bobma-bob, kitobma-kitob o'qiganigiz sari, Oллоhga qaytishdan o'zga to'g'ri yo'l yo'q! – degan bir nido yangrab kelaveradi! Asar ichidan jaranglab chiqaveradi!

YOzuvchining eng katta yutug'i ham ana shunda! Iymonga chorlashida! SHaytanat olami girdobiga tushgan elchinning majruh holati, o'z jonini saqlab qolish uchun sadoqatdan yuz o'g'irgan SHomilning oxir-oqibatda kallasi olinib sovg'a tariqasida qutiga joylashishi tasviri; orzu-armonlari abadiy ko'milgan Zaynabning achchiq qismati – barcha-barchasi biz uchun, hayot atalmish umr yo'lining o'nqir-cho'nqirlaridanmi, jin ko'chalariyu ravon yo'llaridanmi ketayotgan har bir inson uchun hayotiy saboqlardir.

Avvalo taqdirlarni qarang, biri biriga o'xshamasligini ko'ring. Zelixonni Xongreyga chalkashtirmaysiz, Hosilboyvachchani SHilimshiqqa tenglashtirmaysiz. Asadbek bilan CHuvrindi, Kesakpolvonlar-chi? Har biri o'ziga xos olam vakillari. O'z qahri-zahri, alami, armonlari bilan betakror shaxslar. SHaytanat olamining ustunlari. Qiyofalari, fe'lu ta'bu dunyoqarashlari bilan ham bir-biriga sira o'xshamaydi. Ular o'rtasida goh oshkora, goh zimdan borayotgan kurash butun shafqatsizligi bilan qalamga olinishi, ko'lami bilan hayiqmay tasvirlanishi chiroyli. Asadbekning o'z otasi qabrini ziyorat etgani borishi, Kozlov bilan aloqalari, Xongreyning dasti uzunligi, u yuborgan tergovchilarning ashaddiy siquvlari va nihoyat Zelixonning qurboni berilishi sahifalari asarni baland pog'onaga ko'tarib turibdiki, uncha-muncha yozuvchi SHaytanat olamining bu o'rdalarga kirib borishga jur'at ham etolmaydi, iqtidori ham etmaydi. Ayniqsa, Asadbek og'ir xastalikka chalingandan keyin shaytanat olamida uning kurashlari asarga yangitdan «jon va ruh» bag'ishlab yuborganki, bu Tohir Malikning mahoratidan dalolat berib turibdi.

Mana shu xastalik ayniqsa, Asadbek safdoshlari uchun zo'r sinov bo'lib, shu bahonada CHuvrindining sadoqati, Kesakpolvonning hojasi o'rni uchun

«o'lib-qutilish»lari yana ham yorqinroq ochila boradi. U yolg'iz da'vogarlik uchun kurashib, o'zidan necha bosh baland turgan CHuvrindini ustalik-la yo'qotishi faqat SHaytonsaroylarga xos yovuzlikning bir ko'rinishidir.

Asadbek CHuvrindining qabri tepasida yolg'iz qolgandagi manzarani eslang: «Ikki bir xildagi marmar tosh. Birida onasi, ikkinchisida Samandar ukasi. Ularning yoniga aziz bo'lib qolgan CHuvrindi qo'yiladi.

Asadbek osmonning ko'z yoshlari ostida picha turdi. Paltosi ivib ketdi. YUzlarini, ko'z yoshlarini qor aralash yomg'ir yuvdi.

«Bu er mening joyim edi, Mahmud ukam. Sen kelding. YOningda yana bir joy bor... «Mastlikda bo'lgan» deyishyapti. Men bunga ishonmayman. Senga qasd qilganni xor qilmasam, otimni boshqa qo'yaman. Qasos olmaganimcha yoningga kelmayman...»

Kimdir uning qo'lidan ushlab tortdi.

O'giril qaradi: Kesakpolvon.

---Sen mening yuraginga tupurding, - dedi Asadbek.

---Unday dema, Asad, agar bu mening ishim bo'lsa, Xudo ursin!

--- Yo'qol...

---Asad...

---Yo'qol, dedim!...»

Ha, Xudo urib qo'ygan Kesakpolvonning ishi edi bu. Asadbek uni ichki bir tuyg'u ila his etib, sezib turibdi.

Qolaversa, u Asadbekning yuziga birinchi tupurishi emas. Boshda topishgandayoq, bolalikdayoq tupurib ulgurgan edi. eslang, o'g'ri to'g'rining yuziga, valadi zino alamdiydaning yuziga tupurgan edi.

Asadbek kechaga beshafqat tuzumning alamzada farzandi. Achchiqma-achchiq beshafqatli ko'chasiga kirgan, qasdma-qasdiga jamiyat qonunlarini oyoq osti qilib, qasosda qalbiga malham topib yurgan va hech kimga bo'y bermay kelayotgan odam. Agar u vaqti-vaqti bilan eng to'g'riso'z do'sti Jalilni ko'rgisi kelib qolmaganida, yolg'iz xotirani qo'msab bormaganda, bilmadim, uni shu ko'chada yurgan boshqa yovuzlardan farqi qolmasmi edi! Lekin u ham tirik inson,

ojiz banda ekanini biz og'ir xastalikka chalinib, mungli bir qiyofaga kirganida, qo'li qisqaligini sezib qolganida yaqqol ko'ramiz. Ayniqsa, Asadbekning o'sha xastalik boshlanganda ko'rgan tushi, ruhi shodlar va qabr azobini tortayotganlar diyorida kezib, onaizorining «oh» ini eshitib, xasta Samandarni, otasini uchratishi, ular bilan muloqotlarni shunaqa jonli, ishonarli tasvirlanganki, o'qib lazzatlanasiz. Muallif bizni Asadbek qalbining qahrdan xoli, armon to'la puchmoqlarigacha etaklab kiradi. Keyin Asadbekning atay Krasnoyardga – otasi tutqunda yotgan joylarni izlab borib, ovloq o'rmon chetidagi sozoristondan qabrini topib, ziyorat etishi – uncha-muncha dunyo ko'rgan, dunyo kezgan farzandlarning ham xayoliga kelmagan ish. U shu jihatlari bilan ham o'z zamondoshlaridan bir pog'ona yuqori turadi. Qalbi ham ayrim paytlari yumshab ketadi, olijanob ishlarga qoldirday ko'rinadi-yu, qalbiga bir vaqtlar tuxum qo'yib ulgurgan yovuzlik uyg'onib ketganda tamomila sitamkor va qasoskor aylanadi. Uning Muhiddin otaga aytgan gaplarini eslang: «Men namoz o'qimasam ham Xudodan qo'rqadigan insonman. O'lganimdan so'ng do'zaxda kuyishimni bilaman. Sizni bilmayman-u, ammo men sho'ro hukumatidan butunlay noroziman. Do'zaxda avval shu hukumat kuyishi kerak!» deydi u. Asadbek qanaqa murakkab shaxs ekani xuddi mana shunday nozik pallalarda butun bo'y-basti bilan ko'rinib ketadi. Uning tabibdan shifo istab borganida (xuddi Zelixon singari) qariyalarga qo'shilib, namozga o'tgisi kelishi... o'tishi qanchalik tabiiy bo'lsa, shaytanat olamiga sho'ng'ib ketishi shunchalik ishonarlidir. Qalblarini yovuzlik zardobi bosib ketgan bunday kishilar osonlikcha iymonga kela qolmaydilar. Asadbek fojiasining butun dahshati ham shunda, sabog'i ham shunda.

«SHaytanat» asarida nurga yo'g'rilib, san'atkorona chizilgan bir talay obrazlar ham borki, ular asarga o'ziga xos ohang taratib turibdi. Bu eng avvalo Anvar, Zaynab, elchin obrazlaridir. Anvarning zauraliklar bilan muloqotlari, ruhlar olamiga sayohatlari va nihoyat uning yozib qoldirgan xatlar asarga bir oydinlik bag'ishla, haqiqat nurini sochib turibdi.

«Hurlik nimaning evaziga berildi? – deb yozadi u. – Qonlar evazigami? Jonlar evazigami? Jon berishga tayyor azamatlar bormi ulug' Turkistonda?

Xumoyun Mirzo xastaligida tabibga Bobur Mirzo «Eng qadrli narsa – jonim, jonimni berayin», degan ekan. Xasta ona Turkistonga kim jonini fido qiladi? O'limdan qo'qmas, botir o'g'lonlar nahot butunlay qirilib bitgan? Bu qanday hayot o'zi? Kun bor – quyosh yo'q. Osmon bor – yulduzlar yo'q. Vatan bor – vatanparvar yo'q...

Alixonto'ra domla aytgan ekanlar: «Agar o'zbeklar oshning atrofiga birlashganday birlashganlarida edi, allaqachon erkka erishgan bo'lar edilar». Men bu aqlli satrlarga ozgina tahrir kiritmoqqa jazm etdim:

«Agar o'zbeklar to'planib, to'y-ma'raka oshiga oshiqqanlari kabi iymonga oshiqqanlarida edi, mustaqillikka shubhasiz erishadilar».

Ulug' Turkistonni faqat iymon birlashtiradi...»

O'sha kechagi sho'rolar jamiyatida shunday odam jinni deb e'lon etilishi va o'zini osibgina ruhiga erk berishi tabiiy edi. U shunday fojiali qazo topdi. Zamonga sig'magan Anvarni ozod ruhlar chaqirib oldilar»

Asarda haqiqatan oydinlashtirib kelaturgan ruhiy holatlar, parvozlar, o'tgan yaqinlarning ruhlari bilan uchrashuv-muloqotlar nozik, muxtasar tasvirlarda aylanib-aylanib keladiki, ular asarda yangi fazo va yangi havoday tushgan.

Inson ruhiy olamining behudud sarhadlarigacha kirib borishga urinish, ruhlar olamiga sayohatlar keyinchalik Anvar, elchin obrazlarini ochishda, taqdirlarini chizishda, fojialarining ildizlarini ko'rsatib berishda juda ham qo'l kelgan. Romandagi bu bob va sahifalar simirib o'qilsa-da, hech yoddan ko'tarilmay, chuqur o'ylarga toldiraveradi. Hayotning nihoyati imtihon dunyosi ekani, har kim ekanini o'rishi, hech bir jinoyat jazosiz, yaxshilik mukofotsiz qolmasligi teranroq anglatib borilaveradi.

2.2. T. Malikning “Alvido, bolalik!” qissasida ma’naviy xastalikka qarshi isyon masalasi

Badiiy adabiyotning bosh vazifasi insonda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg’ularini shakllantirishdan iborat ekani ma’lum. Qaysi bir davr adabiyotiga nazar tashlamaylik, ushbu maqsad birlamchi masala sifatida namoyon bo’lganini kuzatish mumkin. To’g’ri, adabiy asar pand-nasihatlarining quruq majmuasidangina iborat emas. Qalamkash o’z asarida biror bir hayotiy voqelikni badiiy talqin etar ekan uning turfa tomonlarini o’quvchi nigohida gavdalantirib, ijobiy jihatlaridan bahra olishga, salbiy ko’rinishlarini takrorlamaslikka undaydi.

Tohir Malik qissalari ham bunday xususiyatlardan holi emas. Uning deyarli barcha qissalarida inson ma’naviyati bilan bog’liq muammolar u yoki bu darajada badiiy talqin etilganini kuzatish mumkin. Hatto o’quvchilarning alohida mehrini qozongan «SHaytanat», «Murdalar gapirmaydilar» singari detektiv-sarguzasht qissalarida ham ushbu masalaga yangicha tamoiyillar asosida qaraladi. Bir necha o’rinlarda insonning ma’naviy tanazzulga nafaqat ijtimoiy muhit, balki biz ko’pda e’tibordan soqit qilib yashaydigan ma’rifatsizlik sabab bo’layotganiga urg’u beradi. CHunonchi, tilga olingan qisalarining qator qahramonlari aynan ma’rifatsizligi, diniy va dunyoviy o’gitlardan bexabarligi, ularga nisbatan

nopisndligi tufayli zalolat botqog'iga botadilar, hayotda adashib, umrlarini xazon etadilar. YOzuvchi ushbu masalada g'oyat ehtiyotkorlik bila nish tutadi. Muayyan asarni qur'oniy oyatlar, qudsiy hadislar, payg'ambarimiz o'gitlari yohud allomalarning hikmatlari bilan quruq «bezab» qo'ya qoladi, balki ularni asar syujeti, timsollarning hatti-harakati, ichki olami,, tuyg'ularining tafsilotiga singdirib beradi.

Adibning «Jinoyatning uzun yo'li» turkusidagi asarining dastlabki kitobi bo'lmish «Alvido, bolalik!» qissasida ⁴ mazkur masala o'ziga xos bir yo'sinda talqin etilganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, bola tarbiyasida oilaviy muhitning alohida ahamiyat kasb etishi kuchini bir pog'ona yuqoriga ko'targan. Xususan, qissada Asrorning jinoyat yo'liga o'z-o'zidan kirib qolmaganligini ta'kidlash uchun yozuvchi kitobxonni uning oilaviy muhitiga «etaklaydi». Oila muqaddas ekanligi hech kimga sir emas. Hatto tasavvuf falsafasida ham mazkur masalaga alohida e'tibor bilan qaralgan. «Bu falsafaning yirik vakillaridan bo'lgan Ahmad YAssaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota-otalar o'zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalariga bo'lgan munosabati mavzusi alohida ta'kidlab o'tilganini ko'ramiz».⁵ Aslida ham «Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol insonni tarbiyalash»⁶ asosiy masalasi ekani bugunda ko'p ta'kidlanmoqda. Zamonamizning hozir javob adibi bo'lgan Tohir Malik qissasida Asrorning jinoyat yo'liga kirib qolishiga asosan oilaviy muhit, ota-onasining noto'g'ri tarbiyasi sabab bo'lgani zaruriy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Asror jinoyatchi bo'lib tug'ilmagan. U xudo suygan iste'dod egasi. Maktabda «a'lo» baholarga o'qigan. Tabiiy fanlarni «suv qilib» ichib yuborgan, deyish mumkin u haqida Odob-ahloqi ham havas qilarli darajada edi. Xo'sh, unda bola nega adashdi? Uning balog'at pallasida, dunyo hodisalarini endi-endi tushuna boshlagan bir paytda oiladagi muhit, ota-onaning ma'naviyatdan

⁴ 4 Tohir Malik. Жиноятнинг узун йўли. «Алвидо, болалик!» 1 китоб. – Тошкент.. «Адолат», 2003. 176-бет

⁵ М. Холматова. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. Тошкент. «Ўзбекистон» 2000 йил. 8-бет.

⁶ И.А. Кармов. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳайит-пировард мақсадимиз. – Тошкент. «Ўзбекистон», 2000 й. 25-бет.

yiroqligi, tirikchilik deya risoladagi hayotdan voz kechishlari bolaning buzilishiga sabab bo'ldi. Asrorning otasi otarchi. U o'g'li Asrorni ham to'y-hashamlarga sudraydi. Asror buni istamasa ham, otasining ra'yini qaytara olmaydi; bo'ynidan bog'alangandek to'ylarga boradi. To'yxonadagi mast-alastlarning nojo'ya xatti-harakatlari, to'yda xirom aylayotgan «raqqosa» ning nojo'ya qiliqlari, unga mahliyo bo'lganlarning besharm gaplari, munosabtlari qaysi tomonga egsangiz shu tomonga egiladigan tuyg'ularini g'oyat erta so'ndiradi. Hayot ana shunday engil-elpiliklardan iborat ekan-da, degan tasavvur uyg'onadi. Qlaversa, oiladagi muhit, ota-onasining munosabatlaridagi biryoqlamalik, soxtalik, mol-dunyoga ruju' va boshqa salbiy hodisalar Asrorning pokiza tuyg'ular bilan juda erta xaryolashishiga olib keladi. Asror bu pokiza tuyg'ular endi hech qachon qaytib kelmasligini bilib, "Alvido, bolalik!" deydi.

Hayotga, odamlarga beparvolik, bepisandlik tuyg'ulari uning yuksak orzu-umidlari ustiga tuproq tortadi. Asror o'zi istamagan holda jinoyat ko'chasiga kirib qoladi. Adib qissaning bir qator o'rinlarida Asrorning jinoyat yo'lini tahlil etar ekan, bu mash'um taqdirda uning bir o'zi gunohkor emasligini, balki oila, atrofidagi kishilar, ota-onasi ham birdek aybdor ekanini ta'kidlashga urinadi. Ayniqsa, hikoyachining temir panjaralar ortida Asror bilan qurgan suhbatlari, Asrorning salmoqdor savollari, jo'yali mulohazalari vositasida sog'lom turmush tarzi farzand tarbiyasida etakchi mavqe egallashiga alohida urg'u beradi.

Asrorning jinoyat yo'li Qamariddin bilan boshlangani qissaning bir necha o'rinlarida ko'rsatiladi. Zero, qissaning maxsus bir bobida ta'kidlanganidek, Qamariddin ismi jismiga, hayot yo'liga mos yigitlardan emas; u ko'cha bolasi bo'lib tug'ilgan, ko'cha bolasi bo'lib o'sgan. Asror va uning atrofidagi bolalar Qamariddinni ko'chadagi jinoiy uyushmaning boshlig'i va rahnamosi sifatida taniydilar. Ammo ular «Qamariddining armonini bilishmaydi. Qamariddining dardi ichida. Faqat bir marta, kayf qilib o'tirib, Asrorning bo'ynidan ushlab, peshonasini peshonasiga bosib xo'rsingan: «Mening ham o'qigim kelardi, student bo'lib yurgim kelardi. Olim bo'lib, oq «Volga»larda kerilib yurgim kelardi», -

degan edi. Ana shunda Asror uning qalbida katta dard, alam borligini sezgan edi»⁷ iqtibosdan sezilib turibdiki, har bir o'smirning o'ziga yarasha orzu-armonlari bo'ladi. Ashaddiy jinoyatchi hisoblangan Qamariddin ham bunday muqaddas tuyg'ulardan bebahra emas. Biroq uning armonlari ushulishiga ishonch yo'q. Chunki Qamariddinning hayoti orzu qilinmaydigan hayot. Qamariddin otasi kimligini bilmaydi.

U zino bolasi. Onasini uchinchi sinfga borgandagina ko'rgan. Bor gapni keyinchalik buvisidan eshitgan: «Tug'ilganingni bilib xursand bo'ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko'tarib borsam, bir o'zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan.»

SHu kichkina parchadanoq Qamariddin fojiasi kitobxonga ayon bo'ladi. Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida esini tanigan. Ota-ona, xonadon degan kimsa ham uning uchun yot. SHu sababdan bo'lsa kerak Qamariddin hayotdan bezgan, odam bolasiga mehri yo'q. Har qanday kimsadan bo'lsin o'ch olishga intiladi. SHundan ham ko'rsa bo'ladiki, bola tarbiyasida, uning ma'naviy kamolotida oila, ota-ona va atrof-muhitning alohida o'rni, muayyan ta'siri bor. Insonning mukammallashuvi ayni mana shu omillar ta'sirida ro'y beradi.

Tohir Malik o'z qissasida mazkur masalalarni ochiq-oshkora aytmasa ham, kitobxon uning nima demoqchi ekanini ilg'ab oladi. Bu esa adibning etuk iste'dodini, zamonaning dolzarb muammolariga beparvo emasligini ko'rsatib turadi.

«Alvido, bolalik!» qissasining muqaddimasida shunday tasvir bor. «Quyosh barchaga baravar nur sochadi», deydi. Haq gap. Biroq, uning nuridan hamma ham bir xilda bahramand bo'lavermaydi.

Tikanli sim. Temir panjaralar, baland devorlar ortidan mo'ralagan tonggi quyosh ko'ngilga ozod hayotdagi kabi iliqlikni bera olarmikan? Tikanli simlar bilan o'ralgan qamoqxona hovlisiga ham bahor kiradi, bu erdagi daraxtlar kurtagi

⁷ Тоҳир Малик. Жиноятнинг узун йўли. «Алvido, болалик!» 1 китоб. – Тошкент. «Адолат», 2003. 39-бет

ham ko'z ochadi, barg chiqaradi. Ammo, bahor gashti tikanli simlarni oshib bu erga o'ta olarmikan?

Har lahza, soat, kun... ularni ozodlikka yaqinlashtiradi.

Har lahza, soat, kun... ularni iskanjaga oladi, ular o'ylamay bosilgan qadamdlarini lanatlab yashashadi»⁸

G'oyat ta'sirchan tasvir. YOzuvchi ana shu tasvir orqali o'quvchini voqelikka to'g'ridan-to'g'ri olib kiradi. Demak, asar o'smirlar orasida yuz bergan jinoyatchilik, bu jinoyatchilikning sabab oqibatlarini ko'rsatish, bular haqida o'quvchiga o'git berish haqida bo'lib, birinchi galda, insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi hayotiy unsurlarni ta'kidlashni e'tiborda tutadi. Xo'sh inson ma'naviyati bilan bog'liq masalalar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, o'smirlar ahloqi masalasi qisasida qay tariqa berilgan? Bu masalalarni adib qaysi mezonlarda turib talqin va tahlil qiladi? Bu muammolarni hal etish o'zidan-o'zi yuzaga kelmaydi. Adib har bir timsol xarakterida jinoyatga moyillikni yuzaga kelish sabablarini axtarishga, jinoyat paydo bo'lgan muhitni ko'rsatishga, ko'rsatibgina qolmay, jinoyatchi o'smirning shu yo'lga kirishiga sababchi bo'lgan kimsalarning qiyofasini yoritishga alohida diqqat qiladi.

Asrordagi muqaddas tuyg'ular butunlay so'nib ketmagan. Aks holda Asror qotillik yuz bergan kechasi undan keyin ham qilib qo'ygan ishidan o'kinib pushaymon bshlib tashvishga tushmas edi. Asror kuchli ruhiy iztirobning iskanjasiga qolib ketadi. Bundan keyingi tunlarini bedor o'tkazadi. YUlduzli osmonni bir chetdan yamlab kelayotgan qo'ng'ir bulutlar orasida nifoq chiqib, yashin chaqnatadi. Nur ham o'sha ko'zlardan chiqdi. «Men qotilimni izlab, topdim», deya shu beshinchi qavat peshayvoniga otildi. Momaqoldiroq gumburladi. Asrorning nazarida o'sha odam na'ra tortdi. «Qarang, qotilimni topdim», deya shahar ahlini uyg'otmoqchi bo'ldi.⁹

Adabiyotshunos Umarali Normatov detektiv-sarguzasht turlar haqida gapirib, T. Malikning shu mazmundagi qissalari haqida bergan bahosi e'tiborga

⁸ Тоҳир Малик. Жиноятнинг узун йўли. «Алвидо, болалик!» 1 китоб. – Тошкент.. «Адолат», 2003. 3-бет.

⁹ Тоҳир Малик. Кўрсатилган асар. 9-бет.

loyiq.: «So'nggi yillarda bizda ham zamonaviy jahon adabiyotida keng tarqalgan detektiv-sarguzasht tur ancha jonlandi, bu adabiy turning Tohir Malikday iste'dodliligi professional sohibi qalamlari va uning iste'dodli izdoshlari etishib chiqdi... eng muhimi, Tohir Malik o'zbek adabiyotida bu turga yuksak madaniyat olib kirdi, bu tur mensimay qarash, ta'na-malomatlardan xalos etdi, bu turni rostakam san'at darajasiga ko'tara oldi»¹⁰. Haqiqatan ham, Tohir Malik detektiv-sarguzasht turning mazmunini bir jihatdan yangilay oldi. Bu jihat, birinchi galda, qahramonlar sarguzashtlarning ochiq bayonida emas, balki ularning ruhiy kechinmalarini shu voqelik bilan uyg'unlikda berishda, biror-bir jinoyat yoki mash'um hodisaning ildiz va sabablariga chuqur kirib borishda ko'rinadi.

Xulosa.

BMI ning xulosa qismida boblar yuzasidan fikrlar umumlashtirilib, quyidagi ilmiy yakunga kelindi.

1. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy va madaniy sohadagi tub o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim va tarbiya ishlarini yangicha usulda tashkil qilishni talab etadi. Ta'limning ham mazmunan, ham shaklan milliy tus olishiga erishish shu kunning dolzarb masalalaridan biri. Har bir yangilikni kundalik hayot voqealari mazmuniga singdirish va yosh avlodni kelajak sari yo'naltira olish zarur.
2. Mustaqil respublika sharoitida xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo ta'lim-tarbiya mazmunini milliy lashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy adabiyotimiz, madaniyatimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy ahloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga ega bo'lishni ta'minlamoqda. endi eski uslub bilan

¹⁰ У. Норматов. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: «Маънавият», 2000, 51-бет.

yangi vazifani amalga oshirib bo'lmaydi. SHuning uchun bu masalani yangi pedagogik texnologiyani asosida amalga oshirish zarur.

3. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi o'rta maktablarda, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda dars jarayonini qayta qurishni, adabiyotni o'qitishda qo'llandigan metod va usullarni ko'rib chiqishni talab etdi. CHunki bugungi kun talabi dars o'tishning shakl va usullarini muttasil yangilab borishni taqozo etadi. SHuning uchun dars aniq maqsad asosida o'tkazilishi shart.

4. Dars boshlash jarayonida o'qituvchi eng avvalo, fikrni badiiy asarni idrok qilishga qaratmog'i lozim. Darsning an'anaviymi yoki noan'anaviyligidan qat'iy nazar o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishga harakat qilib, o'qituvchining ilg'or metod va usullaridan unumli foydalanib, o'quvchilarni o'z ustida ishlashga, tirishqoqlikka har bir narsaga tanqidiy ko'z bilan qarashga badiiy asardan zavqlanishga o'rgatmog'i kerak.

5. Noan'anaviy darslardan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish va hisobga olishda foydalanish. O'qitishning bu shaklini muntazam qo'llash ijobiy natija bermaydi. Balki unga nisbatan o'quvchilarning qiziqishlarini susaytiradi. SHuning uchun noan'anaviy darslarni har doim emas, balki o'rni bilan qo'llash foydalidir. Noan'anaviy darslarda puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Birinchi galda uning maqsad va vazifalarini aniqlab olish zarur. Noan'anaviy darslarni o'tkazishda «o'quvchilar bilan birgalikda» degan qoidaga amal qilish kerak. Noan'anaviy mashg'ulotlarda dars ko'proq o'qituvchining faolligiga emas, balki o'quvchining faoligiga o'tishi lozim.

6. BMI ga tadqiqot ob'ekti sifatida olingan. Tohir Malikning «Alvido, bolalik!» qissasini boshqa asarlardan bir necha tomonlari bilan farqlanadi.

a) asar chuqur ilmiy-falsafiy tahlilga asoslangan.

b) muallif o'zgalarga aql o'rgatmaydi, barchani jinoyat ildizlariga nazar tashlashga, uning tub sabalarini aniqlashga undaydi.

v) asarni o'qigan beixtiyor yozuvchi bilan birga mazkur muammo bo'yicha chuqurroq va kengroq fikrlay boshlaydi.

7. Asarning tarbiyaviy ahamiyati kuchli. Hayotning turli mazmundagi inqirozlariga uchragan yoshlar o'zlariga ushbu asar orqali to'g'ri yo'l topa olishi mumkin.

8. Bu asar yoshlar uchun o'zgaralar xatosidan o'rganib, o'z hayotida bu xatolarni takrorlamaslik bo'yicha qo'llanma sifatida katta ahamiyatga ega. YA'ni, bu qissa ko'pchilik yoshlar uchun ma'naviy mash'ala vazifasini bajarish imkoniyatiga ega.

9. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o'rgatish.

O'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy – estetik tahlil masalasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Badiiy asar orqali yozuvchining o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, muallif fikrlari, hissiyoti va xulosalariga sherik bo'lish, ayni paytda uning yutuqlaridan ruhlanish kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirishdi? Adabiy tahlil o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini uyushtirish bilimlarini boyitish va ma'lum maqsadga yo'naltirishda ijodkorlik, pedagogik mahorat, fidoyilik talab etadi.

10. Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchining adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish shunchaki bilim berish vositasi emas, balki adabiy-ta'lim oldidagi ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qaratilgan dolzarb masalalardir.

SHunga erishish kerakki, adabiy-estetik tahlil o'quvchining bilimini boyitish, hissiyotiga cheksiz ta'sir ko'rsatsin, aqlini charxlab, nutqini o'stirsin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim tizimimizdagi eng asosiy o'zgarish va yangiliklarning tub mohiyatini barkamol avlodni har tomonlama rivojlangan va kamol topgan shaxs sifatida tayyorlash tashkil etadi. SHuning uchun ham butun ta'lim tizimi ana shu barkamol shaxsning rivojlanishi uchun sharoit va imkon yaratib berishi lozim. Bugungi kunga kelib «o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi» degan aqidaning eskirib qolganligi ochiq haqiqatga aylanib qoldi.

Agar o'quvchining iste'dodi va qobiliyatlari e'tiborga olinmas ekan, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ulkan yutuqlar haqida gap bo'lishi mumkin emasligi hayotiy tasdig'ini tabora ko'proq darajada topmoqda.

Demak, bugun har qanday yangi axborot texnologiyalari, yoki har qanday pedagogik texnologiyalar mohiyat e'tibori bilan bolaning intellektual jihatdan rivojlanishiga imkon bermog'i kerak. Ana shunday pedagogik texnologiyagina e'tirof etilishi, qadrlanishi, amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinishi mumkin. SHunday ekan, adabiyot darsining mazmuni qanday bo'lishi kerak, u qanday tipologik xususiyatlarga ega, adabiyot darsining samaradorligi nimalarga bog'liq. Bunda o'qituvchining o'rni va mavqei qanday belgilanadi, o'quvchining adabiy jihatdan rivoji uchun qanday yo'l-yo'riqlar tutiladi, adabiyot darslarining tashkiliy jihatlarida qandyn o'ziga xosliklar bor? kabi bir qator savollar paydo bo'ladi. Garchi adabiyot o'qitish metodikasiga oid ko'plab tadqiqotlarga bu savollarga xilma-xil javoblar berilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham o'qituvchilar yaxlit holdagi aniq javob va ko'rsatmalarga muhtoj bo'lib turibdi. Adabiyot darslarining nazariy jihatlar haqida M.I. Maxmudov, A. Zunnunov, M. Mirqosimova, Q. YO'ldoshev, S. Matjonov va boshqalar metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga quyiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma'rifiy, tarbiyaviy estetik jihatlar, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o'rni va ahamiyati, kunda o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarni tashkil etishning yo'l va usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlardan ijodiy foydalana bilishimiz zarur.

Adabiyot darslarida o'quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan har bir o'quvchi bilan alohida ishlashning qo'shib olib borilishi yaxshi samara berishni biz yuqorida ko'rsatgan dars ishlanmalarida ham ko'rdik.

Adabiyot darslarida o'quvchilar olgan bilimlarini, egallagan ko'nikma va malakalarini nao'rat qilish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda bu sohada ayniqsa, test savollariga javob olish yo'li bilan o'quvchilar bilimini baholash keng yoyildi. Ayrim tarixiy sanalarni bilishda, yozuvchining hayotiga, adabiy asarning yaratilishiga bog'liq fakt va hodisalarni o'rganish bilan aloqador holda bu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. Ammo o'quvchining adabiy asarni idrok etish darajasini, uning adabiy qobiliyat va iste'dodini to'la bilish va baholash uchun faqat test savolarining o'zi kamlik qiladi. U og'zaki suhbat, o'quvchilarning yozma nutq malakalarini kuzatish bilan qo'shib olib borilsagina baholash to'laqonli va mukammal bo'ladi degan yakuniy hulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent. «SHarq»n. 1997 y
2. Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz» Toshkent. «O'zbekiston»n. 2001 y. 9-jild.
3. Karimov I.A. «YUksak ma'naviyat - engilmas kuch» Toshkent. «Ma'naviyat» 2008 y
4. Qozoqboy YO'ldoshev. «YOniq so'z» Adabiy o'ylar. Toshkent. «YAngi asr avlodi» 2006 y
5. Safo Matjon. SH. Sariev. «O'zbek adabiyoti» Toshkent. 2005 y.
6. O. Tog'aev. Ibratli saboqlar. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987 y
7. N. Karimov. «XX asr adabiyoti manzaralari» Toshkent. «O'zbekiston» 2008 y

8. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. Toshkent. «O'qituvchi». 1996 y
9. Zunnunov A. Pedagogik tadqiqot metodikasi. T. 2000 y
10. YO'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.
11. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiyot tahlil masalasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Toshkent. «Fan» 2006 y
12. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. «Nasaf» 2000y
13. Sayidahmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. «Moliya» 2003 y
14. To'xliev. B. Sarimsoqov B. «Adabiyot » Kasb –hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent. 2000 y
15. To'xliev. B. Sarimsoqov B. «Adabiyot » Kasb –hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent. 2003 y
16. Haqqulov I. Kim nimaga tayanadi. Adabiy suhbatlar. Toshkent. «Zarqalam» 2006 y
17. Nayitmetov A. Adabiyot merosimiz ufqlari. T. «O'qituvchi» 1997 y
18. Xusanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Toshkent. 2003 y
19. Tolipov. O'. O'qituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar. Xalq ta'limi jurnali. 1999 y 2-3 sonlar
20. Tolipov O'. Ta'lim: o'qituvchi va o'quvchi faoliyati «Sog'lom avlod uchun» jurnali 2000 y 7-8 sonlar
21. Hoshimova M. Saidova R. «Zamonaviy dars turlari» Toshkent. 2005.
22. To'xtaboev B. Filologik ta'limda innovasion texnologiyalar. (ilmiy maqolalar to'plami) Toshkent – 2004 y
23. Hoshimova M. Tojiboev R. Abdurahmonova B. Umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyotini innovasion metoda o'rgansh. T. 2006 y
24. Ishmuhammedov R. Innasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. 2004 y

25. Mirqosimova M. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda epik asarlarni o'rganish. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2003 y 2-son

Foydalanilgan matnlar.

1. Tohir Malik «Alvido, bolalik!» qissa. Toshkent. «Adabiyot» nashriyoti. 2003 y
2. Tohir Malik «SHaytanat» romani. 4 tomlik. Toshkent. «SHarq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2000. 2001 y
3. Tohir Malik «Jinoyatning uzun yo'li» Toshkent. «Istiqlol» nashriyoti. 2004 y
4. Tohir Malik «Falak» qissa. Toshkent. «SHarq» nashriyoti. 2004 y
5. Tohir Malik «So'nggi o'q» tanlangan asarlar to'plami. 3-jild. Toshkent. «SHarq» nashriyoti. 2005 y
6. Tohir Malik Tilla kalamush satirik asarlar. Toshkent. «SHarq» nashriyoti. 2006 y
7. Tohir Malik «Talvasa» roman. Toshkent. «SHarq» nashriyoti. 2007 y

